



**DUDUQLANUVCHI BOLALAR NUTQINI VA UMUMIY HOLATINI
KOMPLEKS DIAGNOSTIKA QILISH HAMDA TAHLIL ETISH
METODIKASI**

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

md buzrukova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-2780-9087>

Rasulova Feruzabonu Ilxomjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini va umumiy holatini kompleks diagnostika qilish hamda tahlil etish metodikasi yoritilgan. Maqolada duduqlanish murakkab kognitiv, nevrologik va ijtimoiy-nutqiy patologiya sifatida tahlil qilinib, uni aniqlashda logopedik, tibbiy-pedagogik va psixologik parametrlarning o'zaro aloqadorligi asoslangan. Shuningdek, bolaning prenatal, natal va postnatal rivojlanish davrlari, nutq ontogenezi dinamikasi, umumiy, nozik hamda artikulyatsion motorika holatini o'rganishning o'ziga xos diagnostik mezonlari tizimli ravishda ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Duduqlanish, kompleks diagnostika, ontogenez, umumiy motorika, nozik motorika.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni bartaraf etishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan nutqiy va nutqdan tashqari funksiyalarning holatini aniq, har tomonlama va chuqur o'rganishga bog'liq. Duduqlanish murakkab kognitiv, nevrologik, psixologik va ijtimoiy-nutqiy patologiya bo'lib, u faqatgina nutqning sur'at-maromiy tashkil etilishidagi nuqson emas, balki butun organizm, markaziy nerv tizimi hamda shaxsiyatning o'ziga xos reaksiyasidir. Shu sababli, duduqlanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalarni tekshirish kompleks yondashuv tamoyiliga asoslanadi.

Kompleks diagnostika metodikasi logopedik, tibbiy-pedagogik va psixologik parametrlarning o'zaro aloqadorligini ko'zda tutadi. Tekshirishning asosiy maqsadi - klonologik yoki tonik xususiyatdagi duduqlanishning kelib chiqish mexanizmlarini aniqlash, nutqiy kamchilikning tuzilishini o'rganish, bolaning kompensator imkoniyatlarini belgilash va individual rivojlanish trayektoriyasiga mos keluvchi korreksion-pedagogik strategiyani shakllantirishdan iborat.



Diagnostic jarayon bola rivojlanishining ontogenetik xususiyatlarini va uning ijtimoiy muhitini batafsil o'rganishdan boshlanadi. Bu bosqichda ota-onalar bilan suhbat o'tkaziladi va tibbiy hujjatlar (pediatr, neyropatolog, psixiatr xulosalari) tahlil qilinadi.

Perenatal davr: Homiladorlikning kechishi (toksikozlar, infeksiyon kasalliklar, onaning hissiy-psixologik holati, gipoksiya xavfi).

Natall davr: Tug'ruq jarayoni xususiyatlari (erta yoki kech tug'ruq, asfiksiya, tug'ruq jarohatlari, koxlear yoki intrakranial qon quyilishlar).

Postnatal davr: Hayotining dastlabki yillarida o'tkazilgan kasalliklar (neyroinfeksiyalar, jarohatlar, surunkali somatik xastaliklar).

Nutq ontogenezi: G'uldirash va guvlash davrlarining boshlanishi va xususiyatlari. Birinchi so'zlar va iborali-frazali nutqning shakllanish muddatlari. Nutq rivojlanishining umumiy sur'ati (tezlashgan, me'yorda, kechikkan).

Duduqlanishning paydo bo'lish dinamikasi – duduqlanish aniq namoyon bo'lgan yosh odatda 2-5 yosh alig'ida, frazali nutq faol shakllanayotgan davrda, psixologik travma ya'ni qo'rqish, oilaviy nizolar, stress, jismoniy jarohat, og'ir infeksiyon vaqtinchalik astenizatsiya, yoki nutq yuklamasining to'satdan ortishi, nuqsonning dastlabki ko'rinishlari: so'z boshida tovush yoki bo'g'inlarni takrorlash, nutqiy to'xtalishlar, havoning yetishmasligi, duduqlanishning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi: doimiyliigi, to'liqinsimonligi, vaziyatga bog'liqligi, oila a'zolarining munosabati va ilgari olib borilgan logopedik yoki tibbiy yordam choralari va ularning samaradorligi.

Bolaning umumiy va noverbal holatini diagnostika qilish ya'ni duduqlanish ko'pincha umumiy va motorika sohasidagi disfunktsiyalar bilan kechadi. Shu sababli, bolaning umumiy holatini o'rganish uning harakat tizimini tekshirishni o'z ichiga oladi. Umumiy motorika ya'ni bolaning harakatlar koordinatsiyasi, muvozanat saqlashi, yurish, sakrash, yugurish vaqtidagi dinamik tashkillashishi tekshiriladi. Harakatlarning sekinlashganligi yoki aksincha, giperaktivlik elementlari tahlil qilinadi. Nozik motorika – barmoqlar differensial harakatlarining rivojlanganlik darajasi o'rganiladi. Buning uchun "Barmoqlar salomlashmoqda", "Eshki", "Qaychi" kabi kinetik sinamalardan foydalaniladi. Shuningdek, grafik ko'nikmalar (chizish, shtrixlash, oddiy shakllarni nusxalash) baholanadi. Artikulatsiyaning motor xususiyatlarini aniqlash uchun lablar, til, yumshoq tanglay harakatlarining hajmi, aniqligi va kuchi tekshiriladi. Bir harakatdan ikkinchisiga o'tish tezligi va artikulyatsion pozitsiyani ushlab turish imkoniyati o'rganiladi. Hamda artikulyatsiya a'zolarida titrash, qo'shimcha beixtiyor harakatlar, so'lak oqishi, bor-yo'qligiga e'tibor qaratiladi. Logopedik-rivojlantiruvchi ishlarini asosiy yo'nalishlari korreksion maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limning nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash bolalar bog'chasi tarbiya



dasturiga muvofiq tashkil qilinadi. Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga ega bo'lgan besh yoshli bolalar dasturda ommaviy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarning maktabga tayyorlov guruhlariga mo'ljallangan bilim, ko'nikma va malakalar hajmini o'zlashtirishlari kerak. Nutq faoliyatining ayrim tomonlarini rivojlantirishga qo'yiladigan talablarni aniqlash maksadida quyidagi maxsus ishlar amalga oshiriladi: talaffuz va fonematik idrokni shakllantirish; atrof-muhit bilan tanishtirish va nutq o'qitish.

Kompleks diagnostika metodikasi logopedga faqatgina nuqsonni qayd etish emas, balki bolaning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda korreksion-pedagogik ishlarning xususiyatini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupova M. Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston Milliy faylasuflari jamiyati nashriyoti. 2007.
2. Mo'minova L. R. Logopediya. – Toshkent: "Noshir" 2019
3. Musayeva N.A. Dudaqlanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan logopedik ishlar. – Toshkent: "Ilm-ziyo". 2018.
4. Nurkeldiyeva D. A. Nutq nuqsonlari diagnostikasi va korreksiyasi. –Toshkent: "Fan va texnologiya". 2021.
5. Volkova G.A. Play activities in the elimination of stuttering in preschoolers. – St. Petersburg: Detstvo-Press.2003.
6. Seliverstov V.I. Stuttering in children: Psychocorrectional and didactic foundations. – Moscow: Vldos. 2001.